nan mana shu ikkinchi turdagi idrokka tegishlidir. Barcha insonlar o‘rtasida mushtarak bo‘lgan birinchi aql – fitrat aqli orqali hosil bo‘ladigan idrok esa uning nazdida ma’rifat doirasiga kirmaydi. Demak, Hakim Termiziy falsafiy ta’limotida ma’rifat din asoslari va ular bilan bog‘liq ta’limot, suluk va e’tiqodga taalluqlidir. Bu ham ijtimoiy-amaliy sohada, ham nazariy sohada namoyon bo‘ladi. Balki u inson idrokining, barcha odamlar uchun umumiy bo‘lgan tabiiy idrokdan tashqari, qolgan barcha jihatlarini qamrab oladi. Mana shu doira ichida, ya’ni, Hakim Termiziy ma’rifati chegaralarini belgilab, uni oddiy nazariy bilim va falsafiy bilishdan ajratib turgan doira ichida ma’rifatning barcha sho‘balarini qamrab olishga harakat qiladi.

Ushbu tahlillar asosida aytish mumkinki, Hakim Termiziyning tasavvufiy qarashlarida ma’rifat tushunchasi insonning ma’naviy kamoloti, qalbning poklanishi va ilohiy haqiqatni anglash jarayoni bilan uzviy bog‘liq sifatida talqin qilinadi. Mutafakkir ma’rifatni shunchaki intellektual bilim darajasidan yuqori qo‘yadi va uni qalb, idrok, haqiqat va iymon orqali shakllangan ilohiy idrok sifatida talqin qiladi. Uning fik-richa, ma’rifat insonni istak va intilishlardan tozalaydigan va haqiqiy kamolotga va ilohiy haqiqatga olib boradigan ma’naviy va ichki yo‘l bo‘lib xizmat qiladi [4;281-b.].

Xulosa va takliflar. (Conclusion /Recommendations). Tahlil qilingan manbalar Hakim Termiziy ta’limotining tasavvuf falsafasidagi o‘rnini, xususan, ma’rifat tushunchasining epistemologik, axloqiy va metafizik mohiyatini yoritish uchun muhim ilmiy asos yaratadi. Tasavvuf ta’limoti olimlarining qarashlari bilan qiyosiy tahlil Sharq tasavvufiy tafakkuridagi Hakim Termiziy ta’limotining o‘ziga xos jihatlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Xususan, uning “haqiqat”, “adolat” va “rostgo‘ylik”ka asoslangan ma’rifat nazariyasi insonning ichki dunyosini, axloqiy yetukligini va ilohiy haqiqat bilan bog‘liqligini tushuntiruvchi to‘liq tasavvufiy-falsafiy tizim sifatida paydo bo‘ladi. Bundan tashqari, Hakim Termiziy merosi inson ma’naviyati, axloqiy tarbiya va komil shaxs tushunchasini o‘rganishda muhim ilmiy-falsafiy ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda. Uning ma’rifatparvarlik haqidagi qarashlari esa zamonaviy falsafa, tasavvufshunoslik uchun muhim nazariy manba bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Abdulhasan Husayniy. Al-Ma’rifa inda Hakim Termiziy. Qohira, Doru-l-kutub arabiy, 2014, 470-bet.

(2). Abulhasan Ali ibn Usmon Hujviriy. Kashf ul-mahjub. Qohira, Al Majlis al A‘la as Siqofa, 2007, 504-bet.

(3). Fariduddin Attor. Tazkirat ul-avliyo. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013, 464-bet.

(4). Mirzo Kenjabek. Termiz tazkirasi. Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2017.

(5). Uvatov U., Cho‘tmatov J. Hakim Termiziy. Toshkent, Shamsiddinxon Boboxonov, 2021, 104-bet.

Kuyliyev Bobur Tulkinovich (Toshkent davlat Tibbiyot universiteti “Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti v.b., falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

RAQAMLI PLATFORMALAR SHAROITIDA MEHNAT SUBYEKTI TRANSFORMATSIYASI: KLASSIK MEHNAT NAZARIYALARINING CHEGARALARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli jamiyat sharoitida mehnat faoliyatining yangi shakllari hamda mehnat subyektining transformatsiyasi tahlil qilinadi. Raqamli platformalar, algoritmik boshqaruv va masofaviy mehnat shakllarining kengayishi natijasida an’anaviy mehnat munosabatlari tubdan o‘zgarib borayotgani ko‘rsatib beriladi. Maqolada klassik mehnat nazariyalari, xususan, Maks Veber va Emil Dyurkgeym qarashlari raqamli platforma iqtisodiyoti sharoitida qay darajada dolzarb ekani tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli jamiyat, raqamli platformalar, mehnat subyekti, algoritmik boshqaruv, gig iqtisodiyoti, masofaviy mehnat, raqamli kapitalizm, mehnat transformatsiyasi.*

ТРАНСФОРМАЦИЯ СУБЪЕКТА ТРУДА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ: ГРАНИЦЫ КЛАССИЧЕСКИХ ТЕОРИЙ ТРУДА

Аннотация. *В данной статье анализируются новые формы трудовой деятельности и трансформация субъекта труда в цифровом обществе. В результате расширения цифровых платформ, алгоритмического управления и дистанционных форм работы показано, что традиционные трудовые отношения кардинально изменяются. В статье анализируется, насколько классические теории труда, в частности взгляды Макса Вебера и Эмиля Дюркгейма, актуальны в контексте экономики цифровых платформ.*

Ключевые слова: *цифровое общество, цифровые платформы, субъект труда, алгоритмическое управление, экономика свободного заработка, удаленная работа, цифровой капитализм, трансформация труда.*

TRANSFORMATION OF THE LABOR SUBJECT IN THE CONTEXT OF DIGITAL PLATFORMS: THE LIMITS OF CLASSICAL LABOR THEORIES

Annotation. *This article analyzes new forms of labor activity and the transformation of the labor subject in the digital society. As a result of the expansion of digital platforms, algorithmic management and remote work forms, it is shown that traditional labor relations are fundamentally changing. The article analyzes the extent to which classic labor theories, in particular Max Weber and Emile Durkheim's views, are relevant in the context of the digital platform economy.*

Key words: *digital society, digital platforms, labor subject, algorithmic management, gig economy, remote work, digital capitalism, labor transformation.*

Kirish. Klassik ijtimoiy-falsafiy nazariyalarda mehnat inson va jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin qilingan. Raqamli platformalar iqtisodiyoti sharoitida ushbu g'oya ma'lum darajada yangi mazmun kasb etmoqda. Chunki platformalarda ishlovchi inson ko'pincha ishlab chiqarish jarayonining to'liq tizimini ko'rmaydi, u faqat algoritm tomonidan berilgan vazifani bajaradi. Bu holat mehnat jarayonining yanada fragmentatsiyalashuvi hamda insonning mehnat faoliyatidan begonalashuvining yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Masalan, turli platformalarda faoliyat yurituvchi haydovchilar yoki onlayn xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislar, ko'pincha, o'z ish beruvchisini ham aniq bilmaydi, ular uchun asosiy boshqaruv mexanizmi algoritmlar orqali amalga oshiriladi. Shu sababli raqamli mehnatda nazoratning yangi shakli – algoritmik boshqaruv paydo bo'lmoqda.

Maqsad va tadqiqot vazifalari. Raqamli platformalar sharoitida mehnat subyektining mazmuniy va funksional o'zgarishlarini tahlil qilish hamda ushbu jarayonda klassik mehnat nazariyalarining tushuntirish imkoniyatlari qanchalik cheklanishini aniqlash hamda tadqiqot vazifalari sifatida platforma iqtisodiyoti sharoitida mehnat munosabatlarining yangi shakllarini ochib berish, mehnat subyektining maqomi, motivatsiyasi va identifikatsiyasidagi transformatsiyalarni tahlil qilish belgilangan. Shuningdek, klassik yondashuvlarning (masalan, sanoat davriga xos mehnat tushunchalarining) zamonaviy raqamli mehnatni izohlashdagi yetarli va zaif jihatlarini aniqlash ham muhim vazifa sifatida qaraladi. Natijada raqamli jamiyat sharoitida mehnat subyektini yangicha konseptual asosda talqin etish zarurati asoslab beriladi.

Muhokama. Maks Veber mehnat faoliyatini ratsionalizatsiya jarayoni bilan bog'lab tushuntiradi. Uning fikricha, "modern jamiyatda iqtisodiy faoliyat tobora ratsional tashkil etilgan tizimga aylanadi va bu jarayon byurokratik boshqaruv shakllari orqali amalga oshiriladi" [1;27-b.]. Biroq raqamli platformalar sharoitida an'anaviy byurokratik boshqaruv tizimi sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Raqamli platformalarda boshqaruv ko'pincha inson menejerlari orqali emas, balki avtomatlashtirilgan algoritmlar orqali amalga oshiriladi. Bu esa Veber ta'riflagan byurokratik nazoratning yangi texnologik shakliga o'tishini ko'rsatadi. Algoritmik boshqaruv tizimi ishchilarning faoliyatini real vaqt rejimida nazorat qilish, ularning samaradorligini baholash va mehnat jarayonini optimallashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bunday tizim ishchilarning mustaqilligini cheklashi ehtimoli ham mavjud bo'lib, qaror qabul qilish jarayonida inson omili tobora kamayib bormoqda.

Emil Dyurkgeym jamiyat taraqqiyotini mehnat taqsimotining rivojlanishi bilan bog'lab izohlaydi. Uning fikriga ko'ra, "zamonaviy jamiyatlarda mehnat taqsimoti murakkablashib boradi va bu jarayon ijtimoiy hamkorlikning yangi shakllarini yuzaga keltiradi. Raqamli platformalar iqtisodiyoti ham mehnat taqsimotining yangi bosqichini ifodalaydi" [2;152-b.]. Chunki bugungi kunda turli mamlakatlarda yashovchi insonlar bitta raqamli platforma orqali hamkorlikda ishlashi mumkin. Bu esa mehnatning global xarakter kasb etishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, bunday jarayon ayrim ijtimoiy muammolarni ham yuzaga keltiradi. Xususan, platforma iqtisodiyotida ishlovchi insonlar, ko'pincha, an'anaviy mehnat huquqi tizimlari bilan to'liq himoyalanmagan bo'ladi. Ular odatda mustaqil pudratchi sifatida qaraladi va bu holat ijtimoiy kafolatlarning yetarli darajada ta'minlanmasligiga olib kelishi mumkin.

Raqamli platformalar asosida shakllanayotgan mehnat tizimi faqat iqtisodiy munosabatlarni emas, balki mehnat faoliyatining ontologik va ijtimoiy mazmunini ham o'zgartirmoqda. Industrial jamiyat sharoitida mehnat jarayoni odatda aniq ishlab chiqarish makoni, qat'iy ish vaqti va ierarxik boshqaruv tizimi bilan tavsiflangan. Bunday tizimda ishchi va ish beruvchi o'rtasidagi munosabatlar nisbatan barqaror va uzoq muddatli xarakterga ega bo'lgan. Raqamli platformalar iqtisodiyotida esa mehnat jarayoni tobora fragmentatsiyalashgan va qisqa muddatli topshiriqlar asosida tashkil etilmoqda. Bu jarayonda inson ko'pincha mustaqil ijrochi sifatida namoyon bo'ladi, biroq uning faoliyati platforma algoritmlari orqali nazorat qilinadi. Shunday qilib, raqamli platforma iqtisodiyotida mehnat subyekti paradoksal holatda bo'ladi: bir tomondan u mustaqil faoliyat yurituvchi shaxs sifatida ko'rinadi, ikkinchi tomondan esa platforma texnologiyalariga yuqori darajada qaram bo'ladi. Raqamli platformalar mehnat faoliyatining

yangi shakli sifatida mehnat jarayonida ma'lumot va algoritmlarning rolini keskin oshirdi. Agar industrial iqtisodiyotda ishlab chiqarishning asosiy resurslari kapital va jismoniy mehnat bo'lgan bo'lsa, raqamli iqtisodiyotda ma'lumot, axborot va tarmoqlar muhim strategik resursga aylanmoqda. Platformalar foydalanuvchilar faoliyati haqida katta hajmdagi ma'lumotlarni to'playdi va ushbu ma'lumotlar asosida mehnat jarayonini boshqaradi. Natijada mehnat samaradorligi real vaqt rejimida baholanadi, ishchilarning reyting tizimi shakllantiriladi hamda xizmatlar sifati algoritmik usullar orqali nazorat qilinadi. Bu jarayon mehnat nazoratining yangi turini – raqamli nazoratni shakllantirmoqda.

Bundan tashqari, raqamli platformalar mehnat bozorining global integratsiyasini kuchaytirmoqda. "Internet tarmoqlarining rivojlanishi natijasida turli mamlakatlarda yashovchi mutaxassislar bitta platforma orqali ishlashi mumkin bo'ldi. Bu holat mehnat resurslarining xalqaro harakatchanligini oshirdi hamda global mehnat raqobatini kuchaytirdi. Masalan, dasturlash, dizayn, tarjima yoki marketing kabi ko'plab kasblar bugungi kunda geografik chegaralarga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshirilmoqda. Bunday jarayon bir tomondan yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi, ikkinchi tomondan esa ishchilarning ijtimoiy himoyasi masalasini murakkablashtiradi. "Raqamli mehnat tizimining yana bir muhim xususiyati mehnat identifikatsiyasining o'zgarishi bilan bog'liq. Industrial jamiyatda inson ko'pincha o'zini ma'lum kasb yoki tashkilot bilan identifikatsiya qilgan". [3. 328 b.] Masalan, u o'zini zavod ishchisi, muhandis yoki davlat xizmatchisi sifatida tasavvur qilgan. Raqamli jamiyatda esa mehnat faoliyati tobora moslashuvchan va ko'p funksiyali xarakter kasb etmoqda. Inson bir vaqtning o'zida bir nechta kasbiy faoliyat bilan shug'ullanishi yoki turli platformalarda parallel ishlashi mumkin. Natijada kasbiy identifikatsiya ancha moslashuvchan shaklga ega bo'lmoqda.

Natijalar. Raqamli jamiyat sharoitida mehnat subyekti ham tubdan o'zgarib bormoqda. An'anaviy industrial jamiyatda mehnat subyekti ko'pincha ma'lum bir korxona yoki tashkilotga bog'langan xodim sifatida namoyon bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda u ko'proq moslashuvchan va ko'p funksiyali faoliyat yurituvchi shaxsga aylanmoqda. Raqamli platformalar orqali ishlovchi inson bir vaqtning o'zida bir nechta platformalarda faoliyat olib borishi mumkin. Bu esa mehnat bozorining moslashuvchanligini oshiradi, biroq shu bilan birga mehnat barqarorligining pasayishiga ham olib kelishi mumkin. Shuningdek, raqamli mehnat jarayonida vaqt va makon kategoriyalari ham o'zgarib bormoqda. Masofaviy ish shakllarining kengayishi natijasida ish joyi tushunchasi tobora mavhumlashib bormoqda. Endilikda inson o'z mehnat faoliyatini an'anaviy ofis muhitida emas, balki internetga ulangan istalgan joyda amalga oshirishi mumkin. Bu esa mehnat faoliyatining yangi ijtimoiy-madaniy formalarini shakllantirmoqda. Shu bilan birga, raqamli platformalar iqtisodiyoti mehnat munosabatlarining yangi turini – gig iqtisodiyotini shakllantirdi. "Gig iqtisodiyoti sharoitida ishchilar ko'pincha qisqa muddatli topshiriqlarni bajarish orqali daromad topadi" [4. 59 b.]. Bu esa mehnat jarayonining yanada individuallashuvi va fragmentatsiyalashuviga olib keladi. Natijada mehnat subyekti tobora mustaqil, lekin ayni paytda platforma algoritmlariga qaram bo'lgan shaxs sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu jarayon klassik mehnat nazariyalarini qayta talqin qilish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa. Raqamli platformalar sharoitida mehnat faoliyati va mehnat subyekti tubdan o'zgarib bormoqda. An'anaviy industrial jamiyatda mehnat ko'proq barqaror ish o'rinlari, qat'iy tashkilot tuzilmalari va aniq boshqaruv tizimlari bilan tavsiflangan bo'lsa, raqamli jamiyatda mehnat faoliyati moslashuvchan, platformaga asoslangan hamda algoritmik boshqaruv orqali tartibga solinadigan jarayonga aylanmoqda. Klassik mehnat nazariyalari ushbu jarayonlarning ayrim jihatlarini tushuntirish imkonini bersa-da, raqamli iqtisodiyot sharoitida yuzaga kelayotgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni to'liq izohlash uchun ularni zamonaviy nazariy yondashuvlar bilan boyitish zarur. Shu sababli raqamli mehnat fenomenini chuqur o'rganish zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Veber M. Protestant axloqi va kapitalizm ruhi. Moskva, "Progress", 1990.

(2). Dyurkgeym E. Ijtimoiy mehnat taqsimoti to'g'risida. Moskva, "Nauka", 1996.

(3). Castells M. The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell, 2010.

(4). Srnicek N. Platform Capitalism. Cambridge: Polity Press, 2017.

(5). Scholz T. Uberworked and Underpaid: How Workers Are Disrupting the Digital Economy. Cambridge, Polity Press, 2016.